

## KINOMATN VA KINODISKURS TUSHUNCHALARINING O‘ZARO MUNOSABATI

Saydaliyeva Matluba Shuxrat qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti II bosqich tayanch doktoranti*

*saydaliyeva1993@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy tilshunoslik, semiotika va diskurs tahlili doirasida “kinomatn” hamda “kinodiskurs” tushunchalarining o‘zaro munosabati, ularning tarkibiy, semiotik va kognitiv-kommunikativ xususiyatlari tizimli va batafsil ravishda tadqiq etiladi. Maqolada mazkur atamalarning o‘ziga xos konseptual tabiati, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Kinomatn va kinodiskursni o‘rganishdagi asosiy semiotik, kognitiv-lingvistik va lingvokulturologik yondashuvlar yoritilib, film tuzilishining lisoniy va nolisoniy tarkibiy qismlari, jumladan, kinomuloqot (kinodialog) hamda vizual-akustik tizimlarning o‘rni tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kinodiskurs, kinomatn, semiotika, kognitiv-kommunikativ tizim, multikodlilik, multimodalilik, kinodialog, lisoniy va nolisoniy omillar.

**Аннотация.** В данной научной статье в рамках анализа современной лингвистики, семиотики и дискурса систематически и подробно исследуется взаимосвязь понятий “кинотекст” и “кинодискурс” а также их структурные, семиотические и когнитивно-коммуникативные особенности. В статье подробно проанализирована специфическая концептуальная природа данных терминов, их взаимные сходства и различия. Освещены основные семиотические, когнитивно-лингвистические и лингвокультурологические подходы к изучению кинотекста и кинодискурса, а также объяснена роль языковых и неязыковых компонентов структуры фильма, включая кинодиалог и визуально-акустические системы.

**Ключевые слова:** кинодискурс, кинотекст, семиотика, когнитивно-коммуникативная система, мультикодность, мультимодальность, кинодиалог, языковые и неязыковые факторы.

**Abstract.** This scientific article systematically and comprehensively examines the relationship between the concepts of “film text” and “film discourse” within the frameworks of modern linguistics, semiotics, and discourse analysis, as well as their structural, semiotic, and cognitive-communicative characteristics. The study provides an in-depth analysis of the conceptual nature of these terms and explores both their similarities and differences. It also highlights the main semiotic, cognitive-linguistic, and linguocultural approaches to studying film text and film discourse. Furthermore, the article explains the role of linguistic and non-linguistic components of film structure, including film communication (film dialogue) and visual-acoustic systems.

**Keywords:** film discourse, film text, semiotics, cognitive-communicative system, multicode structure, multimodality, film dialogue, linguistic and non-linguistic factors.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda insoniyatning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish yo‘llari tubdan o‘zgardi. Kundalik shiddatli hayot sur‘ati va vizualizatsiyaga bo‘lgan global moyillik ta‘sirida an‘anaviy yozma adabiyot matnlariga qaraganda audio-vizual formatdagi san‘at asarlariga, xususan, kinomatografiyaga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj yuqori darajaga ko‘tarildi. Kino san‘ati bugungi kunda nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi vosita, balki murakkab kognitiv-madaniy, ijtimoiy va lingvistik tizim sifatida tilshunoslik, semiotika, psixologiya va sotsiologiya kabi ko‘plab fanlararo tadqiqotlarning markaziy obyektiga aylandi.

**Adabiyotlar tahlili.** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lisoniy tadqiqotlarning sintaktik tahlil doirasidan chiqishi, nutqiy pragmatika hamda fanlararo integratsiyaga yuz tutishi tilshunoslikka yangi tushunchalarning kirib kelishini taqozo etdi. Ma'lumki, tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqatgina alohida olingan gaplar yoki so'zlar doirasida o'rganish cheklangan hisoblanib, ularni kontekstual va kommunikativ vaziyatlarda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, tilshunoslik ilmiga "diskurs" va "diskurs tahlili" (discourse analysis) tushunchalari kiritildi. Ushbu atamani dastlab Z. Harris til birliklarining kontekstual qo'llanilishini o'rganish maqsadida kiritgan bo'lsa, keyinchalik T. van Dijk, N.D. Arutyunova kabi olimlar uni yanada kengroq, ya'ni til tashqarisidagi ijtimoiy, kognitiv va psixologik omillar bilan bog'liq holda rivojlantirdilar.

N.D. Arutyunova ta'rifiga ko'ra, "diskurs – bu hayotga singdirilgan nutqdir". V.I. Karasik esa uni "muloqot vaziyatiga moslashtirilgan matn" deb ta'riflab, matnni diskursiv faoliyatning natijasi sifatida baholaydi. Ushbu metodologik burilish kinomatografiya materiallarini o'rganishda ham o'z aksini topdi. Kinomatografik asarlarning murakkab audio-vizual tabiatini tavsiflash uchun zamonaviy tilshunoslikda "kinomatn", "kinodiskurs", "kinonutq" va "kinomuloqot" (kinodialog) kabi o'zaro bog'liq, ammo vazifaviy va amaliy jihatdan farq qiluvchi tushunchalar qo'llanilmoqda. Biroq ushbu tushunchalarning chegaralari, o'zaro munosabatlari hamon tilshunoslikda bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi "kinomatn" (film text) hamda "kinodiskurs" (film discourse) atamalarining o'zaro munosabatini aniqlash, ularning farqli va o'xshash jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda o'zbek milliy kinosi misolida amaliy jihatlarini ochib berishdan iboratdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda kinomatn va kinodiskursni o'rganishda fanlararo, integrativ yondashuv qo'llanildi. Asosiy metodologik asos sifatida strukturaviy-semiotik, kognitiv-lingvistik va diskurs tahlili yondashuvlari tanlandi.

Kinomatnni tahlil qilishda Y. M. Lotman va Y. Tsivyan qarashlariga tayangan holda uning polikodli va semiotik tabiati, kadr va montaj orqali hosil bo'ladigan ma'no tuzilmalari o'rganildi. Kinodiskursni tahlil qilishda esa T. van Dijk va E. S. Kubryakova nazariyalariga asoslanib, uning kognitiv va kommunikativ jihatlarini, shuningdek, ijtimoiy-madaniy konteksti yoritildi.

Shuningdek, qiyosiy metod yordamida kinomatn va kinodiskurs o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Tadqiqot materiallari sifatida o'zbek va jahon kinofilmlaridan olingan vizual, akustik va verbal fragmentlar tanlab olinib, kontekstual va multimodal tahlil asosida o'rganildi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi kinomatn va kinodiskursni bir-biri bilan uzviy bog'liq, ammo turli darajadagi semiotik-kommunikativ hodisalar sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Kinomatografik asarlarni lisoniy va semiotik tahlil qilish dastlab rus formal maktabi va semiotik maktab doirasida boshlangan. Bunda Yuriy Lotman

va Yuriy Tsivyan kabi yirik semiotik olimlarning nazariy qarashlari fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Yuriy Lotman kinoni doston yoki simfoniya kabi murakkab tuzilishga ega bo'lgan badiiy matn deb hisoblab, film kadrini kino tilining minimal va asosiy ma'no tashuvchi birligi sifatida baholagan. Uning fikricha, kino tili ham boshqa tillar kabi o'z grammatikasi va sintaksisiga ega bo'lib, u kadrlarni ma'lum bir qonuniyatlar asosida montaj qilish orqali shakllanadi.

Yuriy Tsivyan esa ushbu semiotik modelni yanada aniqlashtirib, har qanday filmni uzluksiz matn bo'laklarining diskret ketma-ketligi, ya'ni "yadro kadrlar zanjiri" (syntagma) ko'rinishidagi struktura deb ta'riflaydi. Uning qarashlariga ko'ra, kino matnidagi eng kichik xabar birligi kamida ikkita yadro kadrning o'zaro bog'lanishi natijasida yuzaga keladi, bunda tasvir obyekti va uning joylashgan makoni aniq ajralib turishi va o'zaro munosabatga kirishishi lozim.

Zamonaviy lingvosemiotikada kinomatn tushunchasiga G.G. Slyshkin va M.A. Efremova tomonidan yanada mukammal va tizimli ta'rif berilgan. Ularning fikricha, kinomatn jamoaviy muallif (rejissyor, ssenarist, operator, bastakor, aktyorlar) tomonidan yaratilgan, moddiy tashuvchida (tasmada yoki raqamli formatda) qayd etilgan, yaxlitlik va tugallanganlik xususiyatiga ega bo'lgan xabar bo'lib, u ekran orqali tomoshabinga audio-vizual tarzda yetkaziladi va idrok etiladi. Kinomatn tarkibiga statik va dinamik tasvirlar, og'zaki va yozma nutq, musiqiy fon hamda turli shovqinlar (akustik effektlar) kiradi va bular o'zaro uzviy yaxlitlikni hosil qiladi. Shunga ko'ra, kinomatn o'ta murakkab aralash (ko'p kodli yoki polikodli) matn turiga kiradi, ya'ni unda verbal (til birliklari) va noverbal (tasviriy va tovushli) belgilar tizimi uzviy ravishda birlashadi.

Kinomatndagi belgilar tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning noonadditivlik (non-additivity) tabiatidir. Ya'ni, kinomatnda turli semiotik tizimlarga tegishli bo'lgan oddiy belgilar birlashganda, ularning ma'nosi oddiy arifmetik qo'shilish munosabati asosida emas, balki butunlay yangi, kutilmagan uchinchi ma'noni hosil qilish tamoyili asosida yuzaga keladi. Masalan, qahramonning jiddiy yuzi (vizual belgi) va fon orqasidan eshitilayotgan xorijiy lirik musiqa (akustik belgi) birlashganda, tomoshabinda lirik-romantik kayfiyat uyg'onadi; agar xuddi shu yuz tasviriga vahimali, qisqa va keskin tovushlar qo'shilsa, sahna bir lahzada triller yoki qo'rqinchli janr mazmuniga ega bo'ladi. Bu esa kinomatnning har bir tarkibiy qismi faqatgina umumiy tuzilish ichidagina o'zining haqiqiy ma'nosini namoyon qila olishini ko'rsatadi.

Kinomatn ko'p kodli va yopiq tizimli tuzilish sifatida namoyon bo'lsa, "kinodiskurs" tushunchasi yanada kengroq kognitiv-kommunikativ va ijtimoiy voqelikni ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslik muloqot jarayonini shunchaki matn doirasida emas, balki uni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy kontekst bilan birgalikda o'rganishga intiladi. E.S. Kubryakovaning ta'kidlashicha, diskurs faqatgina nutqiy faoliyat emas, balki so'zlovchining barcha niyatlari (intensiyalari), bilimlari, munosabatlari, shaxsiy tajribasi va uning kognitiv-ijtimoiy makonga singib ketishi jarayonidir.

Kinodiskurs lisoniy va ekstralingvistik omillarning sintezidan iborat bo‘lib, uning mohiyati turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta’riflangan. A.I. Kazakova kinodiskursni nafaqat filmning o‘zi, balki uning tomoshabinlar tomonidan turlicha talqin qilinishi va talqin jarayonidagi ijtimoiy-psixologik omillar yig‘indisi deb hisoblaydi. Sanna Shamil qizi Nazmutdinova esa kinodiskursni “semiotik jihatdan murakkablashgan, madaniyatlararo va tillararo makonda kino tili vositasida muallif va qabul qiluvchi (tomoshabin) o‘rtasida kechadigan dinamik hamkorlik jarayoni” deb ta’riflaydi.

Kinodiskursning eng mukammal va tizimli tavsifini S.S. Zaichenko ishlab chiqqan bo‘lib, u mazkur hodisani quyidagi asosiy tamoyillar orqali ifodalaydi :

1. Ikki tomonlama idrok etiluvchi belgi tizimi: kinodiskurs bir vaqtning o‘zida ham optik (vizual-tasviriy) ham akustik (eshituv-tovushli) signallar kanali orqali faoliyat ko‘rsatadi, bu esa insonning eng muhim ikki sezgi a‘zosi orqali ma’lumot qabul qilishini ta’minlaydi.

2. Madaniy tabiat: u insoniyat sivilizatsiyasi va madaniy rivojlanishi natijasida tabiiy ravishda yuzaga kelgan tabiiy semiotikaning bir ko‘rinishidir.

3. Ko‘p darajali tizim: kinodiskurs belgilari ma’lum bir qonuniyatlar va qoidalar asosida guruhlanadi. Bunda birgina belgining o‘rni yoki tartibini o‘zgartirish butun tizimning semantikasini o‘zgartirib yuboradi.

4. Ochiq semiotik tizim: u tashqi madaniy makon (semiosfera), ijtimoiy voqealik va boshqa diskurslar bilan doimiy muloqotda bo‘ladi.

5. Multikodli tabiat: kinodiskurs o‘z ichida bir nechta kodlarni birlashtiradi va ularning chegaralarida ishlovchi maxsus meta-kodlar vositasida boshqariladi.

Kinodiskursning multikodli tabiatini tushunish uchun L. Donskaya tomonidan media-diskurs doirasida ajratib ko‘rsatilgan o‘n to‘rtta mustaqil semiotik tizimni tahlil qilish lozim. Ulardan faqat uchta sof lisoniy (verbal) xarakterga ega bo‘lsa, qolgan barcha tizimlar – kinesika (harakatlar), statika (pozalar), mimika (yuz ifodasi), musiqa, qo‘shiq aytish, akustik effektlar, qahramonlarning kiyimlari, tashqi ko‘rinishi, ijtimoiy holati va boshqalar noverbal xarakterda bo‘lib, ular muloqot munosabatlarini vizualizatsiya qilishga xizmat qiladi. Ushbu semiotik tizimlarning barchasi kinodiskursda o‘zaro teng huquqli tarkibiy qismlar sifatida ishlaydi va lisoniy tizimni to‘ldiradi.

Ilmiy adabiyotlarda kinomatn va kinodiskurs tushunchalarining o‘zaro munosabatiga nisbatan ikki xil asosiy metodologik yondashuv mavjud. Birinchi guruh tadqiqotchilari (masalan, G.G. Slyshkin va M.A. Efremova) ushbu ikki tushunchani deyarli sinonim sifatida qo‘llaydilar va kinomatn tushunchasini butun kinomatografik diskursiv makon uchun ekvivalent deb hisoblaydilar. Biroq zamonaviy diskursiv tilshunoslikda ushbu atamalarni differensial jihatdan farqlash an’anasi ustuvor hisoblanadi.

Ikkinchi va eng keng tarqalgan yondashuvga ko‘ra, kinomatn va kinodiskurs o‘rtasidagi aloqa “qism va butun” (giponim va giperonim) munosabatidir. Bunda kinomatn kinodiskursning moddiy, tugallangan qismi va muloqot jarayonining o‘zgarmas natijasidir.

Kinodiskurs esa kinomatnni o'z ichiga olgan holda, uni yaratish va qabul qilish jarayonidagi barcha ekstralingvistik omillarni (ijtimoiy vaziyat, madaniy stereotiplar, tomoshabinning kognitiv modellari, ssenarist va rejissyorning niyatlari) qamrab oluvchi giperonimik tushunchadir.

Kinodiskurs tarkibidagi lisoniy tizim (verbal komponent) faqatgina personajlarning o'zaro so'zlashuvidan iborat bo'lmay, balki o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Kinodialogni o'rganish doirasida V.E. Gorshkova unga quyidagicha ta'rif beradi: "Kinodialog – bu badiiy filmning verbal komponenti bo'lib, u ham eshitiladigan nutqiy matnni, ham videoqatorada aks etuvchi turli xil yozma matnlarni (peshtaxtalar, yozuvlar, xat va kundalik sahifalari) o'z ichiga oladi". Kinodialog matni vizual tasvir bilan uzviy bog'liqligi sababli yuqori darajadagi implitsitlik (yashirin ma'no) xususiyatiga ega. Chunki dialogni to'liq tushunish uchun faqat so'zlarning o'zi yetarli emas, balki kadrda nimalar sodir bo'layotganini ko'rish ham shart.

Ssenariy darajasidan boshlab filmning og'zaki va yozma tili ikki xil yo'nalishga bo'linadi :

1. "Eshitiladigan" (The Audible): bunga film qahramonlarining og'zaki muloqoti, kadrda tashqari muallif monologi (diktor ovozi), qahramonlarning ichki monoglari, radiodan yoki televizordan eshitilayotgan nutq hamda qo'shiq matnlari kiradi.

2. "Kuzatilayotgan" (The Observable): bu remarkalar, aktyorlar harakati, mimika va imo-ishoralari hamda operator uchun ko'rsatmalar ko'rinishida bo'lib, keyinchalik ekranda vizual-nolisoniy shaklda tomoshabinga yetkaziladi.

Bundan tashqari, film makonini tahlil qilishda diegezis (diegesis) – ya'ni film ichidagi personajlar yashaydigan, harakat qiladigan va his etadigan badiiy voqelik makoni tushunchasi muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, kinodiskursning lisoniy va musiqiy-tovushli tizimi diegetik va no-diegetik elementlarga ajraladi :

Diegetik elementlar: film qahramonlarining bevosita muloqoti, kadr ichidagi yozma xatlar, qahramonlar tomonidan tinglanayotgan va ijro etilayotgan musiqa hamda kadr ichidagi real shovqinlar (mashina ovozi, qadam tovushlari).

Nodiegetik elementlar: kadrda tashqari diktor yoki muallif sharhi, film ssenariysi mualliflari tomonidan qo'shilgan titrlar, subtitrlar va faqat tomoshabingagina eshitiladigan, personajlar dunyosidan tashqarida bo'lgan fon musiqasi (saundtrak).

Ushbu elementlarning uzviy aloqasi va sintezi tomoshabinda ma'lum bir dramatik ssenariy va emotsional effektlarni vujudga keltirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, kinomatn va kinodiskurs tushunchalari zamonaviy tilshunoslik hamda semiotika sohasida bir-birini to'ldiruvchi, ammo konseptual jihatdan farq qiluvchi o'ziga xos muloqot hodisalaridir.

O'zbek milliy kinomatografiyasi materiallarida ushbu ikki tushunchani farqlash va ularning integratsiyasini tadqiq etish, o'zbek tilining pragmatik, semiotik va

lingvokulturologik xususiyatlarini yangicha metodologik asosda o'rganishga keng imkoniyatlar yaratadi. Kinodiskursni tadqiq qilish o'zbek tili taraqqiyotining badiiy nutqdagi ko'rinishlarini va milliy qadriyatlar tizimining audio-vizual formatda qanday kodlashtirilishini tushunishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арутюнова, Н. Д. (1990). Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь (с. 136-137). Москва: Советская энциклопедия.
2. Горбунова, М. В. (2012). Понятие дискурса в современной лингвистике. Известия Волгоградского государственного педагогического университета, (1), 246-249.
3. Казакова А. И. (2014). Кинотекст в круге смежных понятий. Вестник Челябинского государственного университета, (7), 10-14.
4. Карасик, В. И. (2002). Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена.
5. Кибрик А. А. (2009). Анализ дискурса в когнитивной перспективе. Вопросы познания, (6), 4-15.
6. Кислицына, Н. Н. и Службина, А. Г. (2019). Лингвокогнитивные особенности кинодискурса (на материале англоязычных диалогов подростков). SibScript, (3), 342-350.
7. Колодина, Э. А. (2013). Статус кинодиалога в ряду сложных понятий: кинодиалог, кинотекст, кинодискурс. Вестник Иркутского государственного лингвистического университета, 2 (23), 110-115.
8. Лотман Й. М. (1973). Семиотика кино и проблемы киноэстетики. Таллинн: Стокгольм.
9. Назмутдинова, С. С. (2008). Кинодискурс как объект лингвистического изучения. М.: Наука.
10. Слышкин Г. Г., Ефремова М. А. (2004). Кинотекст (опыт лингвокультурологического анализа). Воронеж: ВГПУ.
11. Зайченко, С. С. (2017). Кинодискурс как многоуровневая знаковая система. Киев: Логос.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934